



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Zarina Pardayeva

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-bosqich magistranti

ITALYAN TILIDAGI QISQARTMALARNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY USUL VA VOSITALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada italyan tilida uchraydigan ayrim qisqartmalar xususida so'z boradi. Bu qisqartmalarni qanday tarzda sodda va tezda o'zlashtirish mumkinligiga to'xtalib o'tiladi. Bir nechta qisqartmalar misol tariqasida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Qisqartmalar, aralash yo'l, so'z birikmasi, usul, xalqaro tashkilotlar

Аннотация. В этой статье обсуждаются некоторые аббревиатуры итальянского языка. Вот как создать его для использования со своим акронимом. Несколько сокращений приведены в качестве примеров.

Ключевые слова. Аббревиатуры, смешанный метод, предложение, метод, международные организации.

Annotation. This article discusses some of the acronyms found in Italian. Here's how to create one to use with your acronym. Several abbreviations are cited as examples.

Keywords. Abbreviations, mixed route, sentence, method, international organizations.

Har bir tilda bo'lgani kabi italyan tilida ham qisqartmalar mavjud bo'lib, ular o'z navbatida bir qator tushunishga murakkablikka ega. Avvalo qisqartmalar haqida batafsil to'xtalib o'tsak.



Qisqartma soʻzlar - barqaror soʻz birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki maʼlum qismlarini olib qoʻshish bilan hosil qilingan soʻzlar. Masalan, IIV — Ichki ishlar vazirligi, XTB — Xalq taʼlimi boshqarmasi, fil-fak — filologiya fakulteti. Qisqartma soʻzlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo boʻladi va faol qoʻllanishi natijasida keyinchalik ogʻzaki nutqqa ham oʻtadi.

Qisqartma soʻzlar asosan, ot turkumiga mansub boʻlib, quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi: 1) soʻz birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qoʻshish bilan (XDP — Xalq demokratik partiyasi, DTM — Davlat test markazi, OAK — Oliy attestatsiya komissiyasi); Qisqartma soʻzlarning bu turi ilmiy adabiyotlarda abbreviatura deb ham ataladi; 2) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarning 1-harflarini olib qoʻshish bilan (OʻzMU — Oʻzbekiston milliy universiteti, "OʻzAS" ("Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati")); 3) soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning bosh qismlarini olib qoʻshish bilan (biofak — biologiya fakulteti, jurfak — jurnalistika fakulteti); 4) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarni qisqartirmay qoʻshish bilan (Oʻzdonmahsulot, Oʻzgazloyiha); 5) aralash yoʻl bilan (Oʻzbektelekom, Oʻzteleradiokompaniya, Oʻzavtoyol) va boshqalar.

Qisqartma soʻzlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO), mamlakat va davlatlar (XXR, RF, AQSH), siyosiy partiyalar, harbiy uyushmalar (OʻzLDP, NATO), ilmiy-oʻquv muassasalari (OʻzR FA, OʻzDJTU, FarDU), vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, korxonalar (XTV, DTM, Oʻzmashholding, Toshshaharyoʻlovchi), mashina, asbob-uskunalar va inshootlar (EHM, ATS, GES) va boshqalarning nomlarini bildiradi. Qisqartma soʻzlar tayyor holda boshqa tillardan oʻzlashtirilishi (YUNESKO, FIFA, FIDE, NATO, AES) yoki muayyan til, masalan oʻzbek tili materiallari asosida hosil qilinishi mumkin. Keyingi turga man-sub oʻzbekcha Qisqartma soʻzlarning aksariyati rus tilidagi soʻz birikmalari va ular asosidagi Qisqartma soʻzlarning kalkalari hisoblanadi, masalan, BMT<OON, DAN< GAI, OAV (ommaviy axborot vositalari) < SMI (sredstva massovoy informatsii), EHM< EVM kabilar.

Italyan tilini oʻrganuvchilarga bu tildagi qisqartmalarni oʻrgatishda albatta, har bir harfni taʼrifini berib, batafsil tushuntirib oʻtish lozim. Masalan,

№	Qisqartma	Batafsil italyanacha	Oʻzbekcha tarjimai
1	AOSS	Autorità e organizzazioni attive nel campo del salvataggio e della sicurezza	Qutqaruv xavfsizlik choralari boʻyicha boshqarma va tashkilotlar
2	MROS	Ufficio di comunicazione in materia di riciclaggio di denaro	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish boʻyicha hisobot idorasi



3	ADR	Accordo europeo relativo al trasporto internazionale su strada delle merci pericolose	Xavfli yuklarni xalqaro transport orqali tashish to'g'risida Yevropa kelishuvi
4	ASTT	Associazione Svizzera delle Truppe di Trasmissione	Aloqa qo'shinlarining Federal assotsiatsiyasi
5	ASI	Associazione svizzera infermiere e infermieri	Shveytsariya hamshiralar uyushmasi
6	AFIS	Automated Fingerprint Identification System (sistema d'identificazione delle impronte digitali)	Avtomatlashtirilgan barmoq izlarini aniqlash tizimi
7	AOSS	Autorità e organizzazioni attive nel campo del salvataggio e della sicurezza	Qutqarish va xavfsizlik organlari tashkilotlari

Bu qisqartmalarni tez va oson o'rgatishni yo'llaridan biri haqida to'xtalib o'tamiz. Avvalo yoyiq holatdagi gaplar berilib, til o'rganuvchilarga qanday holatda qisqartma qilsak bo'ladi degan savolni o'rtaga tashlash lozim. Shu paytda turli xil variantlar paydo bo'ladi, munozara so'ngida asl qisqartmani ko'rsarish kerak bo'ladi. Shunda o'rganuvchi va o'quvchilarning xotirasiga bu qisqartmalar tez va sodda tarzda muhrlanib qoladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir til o'rganuvchi yoshidan qat'iy nazar muhim va asosiy bo'lgan qisqartmalarni bilishi lozim. Til o'rgatishda dastlab butun dunyo tashkilotlari nomlarini qisqartmalari batafsil tushuntirilib, o'quvchilarga yod oldirish lozim. Harflarni ko'rib qisqartmalarni farqlash ancha murakkablikni taqozo etadi. Shu sababli ularni yoyiq holatdagi shakli bilan eslab qolish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Paul-André Linteau et coll., Histoire du Québec contemporain, vol. 2 : le Québec depuis 1930, Montréal, Boréal, 1989, p. 422. Ci-après Histoire.
2. Linteau, Histoire, p. 741. Les deux abréviations latines les plus couramment utilisées sont ibid. et op. cit. :
3. Ibid. (pour ibidem), qui veut dire « au même endroit », est utilisé lorsqu'on cite le même document dans deux notes consécutives. On fait suivre l'abréviation du numéro de la page citée, sauf s'il s'agit de la même page :
4. Paul-André Linteau et coll., Histoire du Québec contemporain, vol. 2 : le Québec depuis 1930, Montréal, Boréal, 1989, p. 422.